LISONIY - KOGNITIV FAOLIYATNING MILLIYMADANIY XUSUSIYATLARI

Fotima Komiljon qizi,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi, uning tarixi, taraqqiy etishi kabi masalalar organiladi. Ushbu fanga oid tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtiriladi. Mavzuni o'rganish jarayonida kognitiv tilshunoslikka oid masalalarga munosabat bildiriladi.

Tayanch so‘zlar: Til, kognitiv tilshunoslik, kognitiv tahlil, til tizimi, kognitiv grammatika, kognitiv semantika.

Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliymadaniy xususiyatlari muammosi tadqiqotchilarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib kelmoqda va ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar ham turli-tuman, ba’zan esa tamoman bir-biriga ziddir. Ulardan ayrimlari hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi batamom mos kelmasligini ta’kidlashga harakat qiladilar: “Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishadi” [1]. G.D.Gachevning bundan qariyb o‘ttiz yil oldin aytgan bu fikri tilshunoslar va boshqa fan sohalari vakillari uchun yangilik emas edi. O‘z paytida I.Kant hech qanday tajriba o‘tkazmasdan turib ham (faktlar to‘plash shart emas) ong kategoriyalarini ajratish mumkinligi haqida gapirgan edi. Shundan buyon faylasuflar, psixologlar, etnograflar, kognitologlar (A.Ya.Gurevich, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, V.F.Petrenko va boshqalar) borliqni idrok etish turli bilim strukturalari orqali bajarilishi va ushbu strukturalarda oldingi tajribada to‘plangan bilim - axborot tartiblashgan, umumlashgan holda aks topishini qayd etib kelishmoqda. Ammo u holda oldingi tajriba qay shaklda qoliplashadi yoki tizimlashadi degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Shubhasiz, tajriba dastlabki o‘rinda insonning bevosita ko‘z o‘ngida, o‘zi yashab



turgan muhitda yuz berayotgan voqealar, uning atrofidagi predmetlarni bevosita kuzatuvi, ulardan foydalanishi jarayonida to‘planadi. Inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo‘lishi ham tabiiydir. So‘zsiz, insonning inson sifatida shakllanishining o‘zi ham madaniyat bilan bog‘liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko‘zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari “nazorati”da bo‘ladi. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta’sirida taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi.

Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o‘rinda voqelikni moddiy va ma’naviy o‘zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi. Bunday farqning asosida o‘zlashtirilayotgan ob’ekt yoki bu faoliyat mahsuli emas, balki ushbu moddiy-ma’naviy o‘zlashtirish jarayoni qanday yoki qay uslubda kechayotganligi yotadi. Shu sababli madaniyatni moddiy va ma’naviy, sub’ektiv va ob’ektiv, ichki va tashqi, shaxs madaniyati va milliy madaniyat kabi turlarga ajratishadi. Madaniyat hech qachon qotib qolgan hodisa sifatida talqin etilmasligi lozim, u taraqqiy qilib boradi, bir holatdan ikkinchisiga o‘tadi, boshqa madaniyatlar bilan qorishib boradi. Yana shuni unutmaslik lozimki, hech bir inson oldindan madaniyatli bo‘lib tug‘ilmaydi, bunga u ijtimoiy faoliyat natijasida, muloqot (keng ma’noda) jarayonida erishadi. Axir bekorga antropologlar (K.Levi–Stross, K.Girs va boshqalar) madaniyatni insonlar o‘zaro munosabatlarining mahsuli sifatida ta’riflashmasa kerak. Madaniyat shakllanishida insonlar o‘rtasidagi muloqotdan tashqari, voqelikdagi ob’ektlar bilan bo‘lgan muloqotning roli ham muhimdir. Ma’lumki, inson va voqelik munosabatida lison o‘ziga xos bog‘lovchi, vositachilik rolini o‘ynaydi. Lison o‘zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o‘zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonda dunyoni o‘ziga xos «ko‘rish», uni idrok etish natijasida o‘z aksini topadi [2].



Lison va madaniyat munosabati masalasi murakkab, juda qiyin hamda ko‘p tomonlama muhokamani talab qiladigan masaladir. Ular tadqiqiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo‘ladi, aks holda bu ikki turdagi semantik tizimni yagona bir qolipga tushirish xavfi ham yo‘q emas. Shuning bilan birgalikda bu ikki tizimning o‘zaro o‘xshash, umumiylik tomonlari ham mavjudligini unutmaslik lozim. V.N.Teliya bunday umumiylikni quyidagilarda ko‘radi:

1) madaniyat, xuddi lison kabi, inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir;

2) til va madaniyat o‘zaro munosabatda, muloqotda bo‘ladi;

3) til va madaniyatning sub’ekti – bu doimo individ yoki ijtimoiy guruh – jamoa shaxs yoki jamiyat;

4) me’yoriylik (norma) til va madaniyat uchun umumiy xususiyatdir;

5) tarixiylik – til va madaniyatning muhim xususiyatidir;

6) til va madaniyatga “dinamika – statika” qaramaqarshiligi bir xilda xosdir.

Darhaqiqat, olima eslatganidek, til va madaniyatni yaqinlashtiradigan umumiy xususiyatlar anchagina (bekorga ko‘pchilik tilni milliy madaniyatnnig ajralmas qismi, bir bo‘lagi sifatida talqin qilishmasa kerak). Ayni paytda, bu ikki hodisani bir-biriga butunlay qorishtirib yuborish unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Til va madaniyat o‘rtasidagi umumiylik qanchalik darajada bo‘lmasin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham yetarlidir. Bu farq, birinchi navbatda, ushbu ikki hodisaning tizimiylik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi: madaniyat ham belgilar sistemasidir. Ammo ushbu sistema, til tizimidan farqli o‘laroq, o‘z-o‘zidan tartiblashish, tizimlashish xususiyatiga ega emas. Umuman, til va madaniyat tizimlari tarkibidagi belgilar strukturaviy tuzilishi va bajaradigan vazifalariga ko‘ra keskin farq qilishlariga nisbatan tamoman boshqa sistemalar sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, til barcha uchun bir xil vazifa bajaruvchi, “jamoaviy adresatli” [3] hodisa bo‘lsa, madaniyatda esa ko‘proq elitarlik (saralik) namoyon bo‘ladi. Demak, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat izomorflikdan (aynanlikdan) ko‘ra ko‘proq homomorflik, ya’ni strukturaviy o‘xshashlikdan iborat degan xulosa haqiqatdan uzoq emas. Har qalay, homomorflik faqatgina bu ikki tizimning



tarkibiy tuzilishida namoyon bo‘lib qolmasdan, ularning vazifa jihatidan hamohangligida ham aks topsa ajab emas. Tilning madaniyat uchun “xizmat” qilishini madaniy - ma’naviy boylik, axborot manbalarini saqlash, ularni avloddan - avlodga yetkazish hamda madaniy tushunchalar va konseptlar, stereotip va etalon-namunalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etishini hech qachon inkor etib bo‘lmaydi. Til va madaniyat o‘rtasidagi determinizm, ya’ni o‘zaro bir-birini taqoza etish haqiqiy “o‘zarochilik”dir. Shu sababli turli mamlakatlar olimlari tomonidan til va madaniyat munosabati masalasi turli yo‘nalishlarda o‘rganilayotganligi tabiiydir. Bu muammo tilshunoslar (Yu.Sorokin , V.Teliya, Ye.Vereщagin, A.Vejbiskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Xayms kabilar) bilan faylasuflarning (G. Brutyan, E. Markaryan va boshqalar), psixologlarning (L.Vigotskiy, A.Leontev, V.Petrenko, P. Gulviste) e’tiborini tortib kelmoqda. Bu masala nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi (Yu.Skvorsov , E.Begmatov, A.Mamatov, B.O‘rinboev va boshqalar). Keyingi yillarda tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakl topishi (V. Krasnix, V. Maslova, D. Gudkov, S. Ter - Minasova, D. Ashurova) [4] bu masalaning dolzarblashishiga sabab bo‘lmoqda. Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma’lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir. Oldingi sahifalarda inson har qanday voqea - hodisani, predmetni idrok etish, uning haqida ma’lum tushunchaga ega bo‘lishda beixtiyor yoki baixtiyor oldingi tajribasiga tayanishini eslatgan edik. Ammo “oldingi tajriba” qanday shaklda va qay yo‘sinda paydo bo‘lishini ham bilish kerak. So‘zsiz, bu tajriba milliy madaniyat muhitida, kundalik hayot faoliyatida uchraydigan voqelik hodisalari ta’sirida yuzaga keladi. Shu sababli turli madaniyat vakillari uchun kategoriyalashtirish hodisasi bir xilda kechmaydi. Kategoriyalashtirish faoliyatining madaniy - milliy xususiyatlarini, uning bevosita madaniy muhit bilan bog‘liq tomonlarini ilmiy asoslashga



birinchilardan bo‘lib harakat qilishgan tilshunos olimlar Vilgelm fon Humboldt va Eduard Sepirlardir. Ular milliy tillar lug‘at va grammatik tizimlari o‘rtasidagi farqni til sohiblari – insonlarning voqelikni qabul qilish va idrok etishidagi farq bilan bog‘lashga harakat qilishgan. V.Humboldt turli millat va madaniyat vakillarining voqelik haqida tasavvuri mos kelmasligini isbotlamoqchi bo‘ladi. “Turli tillar – yagona bir predmetni turlicha nomlanishidan ko‘ra, ushbu predmetni turlicha ko‘rish, idrok etishdir” (Gumboldt 1984: 9). Voqelikni turlicha “ko‘rish” hamda kategoriyalashtirish, ayniqsa, grammatik tizimlar qiyosida aniq namoyon bo‘ladi [3].

Olamdagi hodisalar, kategoriyalar, turlarni ularning aniq mavjudligiga nisbatan ajratmaymiz, aksincha, olam biznnig ongimizda misli charxpalakdek aylanib turgan taassurotlar asosida tartib topadi. Demak, bu tartibni ongimizda saqlanayotgan til tizimi ta’minlaydi. Biz olamni u yoki bu yo‘sinda (boshqacha emas) qismlarga ajratishimiz, tushunchalar vositasida ifodalashimiz va ma’nolarga taqsimlashimizning sababi biz ham bunday tizimlashtirishga undovchi kelishuv ishtirokchilarimiz. Bu kelishuv ma’lum bir lisoniy jamoa uchun majburiy va bizning lisonimiz tizimidan joy olgan.

Shunday qilib, nisbiylik tamoyilining yangi ko‘rinishiga duch kelamiz va uning mazmuni quyidagicha: bir xil fizik hodisalardan tarkib topgan olamning bir xildagi tasviriga faqatgina til tizimlarining bir xil yoki hech bo‘lmaganda o‘xshashligidagina erishish mumkin. Shunday ekan, o‘zaro bog‘liqlikda qaralayotgan hodisalardan qaysi biri (tilmi yoki tafakkur) birlamchi yoki qaysinisi ikkinchisiga ta’sir ko‘rsatadi (ongmi yoki shaxs faoliyatimi) qabilidagi savollar tug‘iladi. Albatta, bunday ritorik savollarga aniq javob topish mushkul, chunki taqqoslanayotgan hodisalar birbirini taqozo etuvchi, bir-biriga ta’sir o‘tkazuvchi o‘zaro munosabatdagi hodisalardir. Tilshunos va psixologlar qator yillar davomida SepirUorf farazlarining bevosita lug‘at va grammatikaga oid tomonlarini qayta tekshirish maqsadida to‘xtovsiz tadqiqotlar olib borishmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunosik. “Sangzor” nashriyoti.14-bet
2. Boymurodova L. Kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy bilimlar. Maqola 4-bet
3. N.A. Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov. General Linguistics. T., 1979
4. R. Rasulov. Lexico-semantic groups of state verbs and their valence. T., 1991.

